

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

2-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN	25-29
<i>Хуррамова Саодат Хабибовна</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА	30-37
<i>To'uchiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOYIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOYIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876)	79-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH	85-89
---	-------

<i>Исламтудинова Дина Файзрахмановна</i> РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i> QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSİYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i> O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i> CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LARI	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i> MULKIY SOLIQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i> UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i> MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i> DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i> MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i> DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	161-166
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i> ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIY IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i> FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i> BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i> ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG"	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i> SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOYIY-FALSAFIY OMILLARI	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i> IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i> ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI	203-206
<i>Rasulov Azizxon Mukhammadqodirovich</i> AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI	207-213
<i>Xasanov Boburjon Yakimovich</i> EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i> MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i> HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i> YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASIDA IJTIMOY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i> ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI)	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i> INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i> BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i> XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i> VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOY-FALSAFIY TALQINI	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i> RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i> YOSHLARDA IJTIMOY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i> IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI	282-285

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i> SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i> MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH	290-296
<i>Babadjanova Nazokat Davronbekovna</i> "YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI	297-302
<i>Sayidova Shakhrizoda Nasrulloevna</i> RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT"	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i> TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i> TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJIY TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i> PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i> OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI	332-338
<i>Babayeva Iroda</i> THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i> USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA)	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i> TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i> KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	358-363
<i>Mengboyev Azizbek Alijon o'g'li</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i> SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i> MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI	379-385
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Muxitdinova Firюза</i> КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloev Shavkat</i> INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxanovich</i> JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI	420-425
<i>Tuxtashev Sherzod Azimovich</i> JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i> INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMOYA QILISH MASALALARI	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i> BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuza Kamolovna</i> IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIY TAJRIBASI	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i> RAQAMLI ERADA SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEKNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA	448-455
<i>Juraeva Asal</i> EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS	456-461
<i>Sobirov Sauidbek Maxmudovich</i> ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i> DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i> SUN'YI INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI	492-500
<i>Yusupov O'ktambov</i> KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i> XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i> МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ	519-523
<i>Qudratillayev Hazratali Zokirjon o'g'li</i> JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i> SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ	537-542
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i> AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> 7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i> IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINFLAR O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA	577-582
<i>Тлеумуратова Абадан Бекбановна</i> ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	586-592
<i>Mamaziyayev Oblaberdi</i> OLIV TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i> YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIV KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJIV MODELLARI	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISHNING ZAMONAVIV TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i> AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETINI ISHLASH METODIKASI	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i> BO'LAJAK TASVIRIV SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI	622-625
<i>Elova Sitara Axmatkulovna</i> QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI	626-629

Received: 25 January 2025
Accepted: 1 February 2025
Published: 10 February 2025

Article / Original Paper

PROCESSES OF FORMATION AND MAIN COMPONENTS OF THE ETHICAL AND AESTHETIC DEVELOPMENT OF A REPORTER

Ibragimova Zulaykho Karimbayevna

Head of Department,
Khorezm Regional Legal Technical School

Abstract. This article philosophically analyzes the views and main components of scholars regarding the formation of a leader's moral and aesthetic perfection, and reveals the unique importance of morality in the formation of a leader's image.

Keywords: ethics, aesthetics, leader, beauty, just society, courage, management system.

RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI

Ibragimova Zulayxo Karimbayevna,

Xorazm viloyati yuridik texnikumi kafedra mudiri

Annotatsiya. Mazkur maqolada rahbar axloqiy-estetik kamolotining shakllanishiga oid allomalarning fikrlari va asosiy komponentlari falsafiy tahlil qilingan va rahbar qiyofasini shakllanishida axloqning o'ziga xos ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: axloq, estetika, rahbar, go'zallik, adolatli jamiyat, jasorat, boshqaruv tizimi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N42>

Jamiyatda kechayotgan turli jarayonlarning samarasi tobora ko'proq rahbar mahorati, uning ijtimoiy qiyofasining xarakteri, shakllanganligi darajasiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan barcha mamlakatlarda yangi tipdagi, zamonaviy rahbarlar avlodini vujudga keltirish masalasi eng ahamiyatli, dolzarb ijtimoiy vazifalar turkumiga kiritilmoqda. O'zbekiston ham bundan istisno emas, albatta. Tashkilot ichida shaxsning axloqiy me'yorlariga yuqori darajadagi rahbarlar katta ta'sir ko'rsatadi. Ularning xulq-atvori namuna bo'lib, ko'plab tashkilotlar qabul qilgan maxsus axloqiy sinflar, belgilangan me'yorlar yoki rasmiy xulq-atvor va axloqiy kodekslardan ancha kuchliroq bo'lgan madaniy kontekstni yaratadi. Rahbar tushunishi kerakki, u qo'l ostidagilar bilan qanchalik yaxshi munosabatlarga ega bo'lsa, ishlab chiqarish shunchalik samarali bo'ladi, rahbar va bo'ysunuvchi o'rtasidagi munosabatlarning asosiy xususiyati ularning bevosita aloqasi hisoblanadi. Shuning uchun rahbar professogrammasida ishbilarmonlik aloqalari etikasi asosiy komponent hisoblanadi.

Mamlakatda mustaqillikning ilk davridan boshlab rahbar kadrlar faoliyatiga milliy va ma'naviy qadriyatlarini singdirish orqali ularda yuksak axloqiy-estetik madaniyatni shakllantirish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi barobarida bu jarayon islohotlarning tarkibiy qismlaridan biriga aylanmoqda.

Rahbar qiyofasini shakllantirishda axloqning mavqeyi to'g'risida jahon faylasuf-axloqshunos olimlari yangicha qarashlarni konseptual tarzda bayon qilishgan, lekin jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar uni yanada takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Ular global etika va bioetika muammolariga ko'proq e'tibor qaratishmoqda. Jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhitiga nisbatan bildirilayotgan fikr-mulohazalar N.Berdyayev, V.Solovev. S.Frank. A.Shopengaur, F.Nitsshe, Freyd kabilarning qarashlarini talqin qilib berish bilan cheklanib qolayotganligini qayd etib o'tish lozim. Kant tabiat, inson taraqqiyotining bir tomoninigina tashkil etadi deb hisoblaydi. Buni u fizikoteologiya deb ataydi. Insonning eng oliy maqsad sifatida rivojlanishi uning axloqiy subyekt sifatida shakllanishiga ham bog'liq. Buni Kant etikoteologiya deya atagan. Etikoteologiyada insonning real substansiyasi emas, balki bo'lishi kerak mohiyati nazarda tutadi. Demak fizikoteologiyada jamiyatni tabiat singari obyektiv jarayon sifatida [1] ifodalanadi, etikoteologiyada esa Kant so'zlari bilan aytadigan bo'lsak, dunyo rivojlanishining oliy maqsadi bilan shu jumladan o'z yashab turgan sotsium bilan aloqasini aks ettirib, jamiyatga qadriyatli munosabat bildiriladi.

Abu Nasr Forobiy ham rahbar axloqiy sifatlarini jamiyatda konstruktiv rolga katta baho beradi. U insonning bu olamga kelishi va yashashidan maqsad baxt-saodatga erishmoqdir, deya ta'kidlaydi. Baxt-saodat eshiklarining kaliti insonlar o'z qo'lidadir, bu maqsadga odamlar fazilatli ishlari va yaxshi axloqiy sifatlar sohiblari bo'lish orqali erishadilar. Demak, baxt-saodat va uni qo'lga kirishish vositasi — fazilatli ishlar uzviy ravishda bir-biri bilan bog'langan bo'lib, baxt insonning orzu umidi bo'lgan mavhum tushuncha (axloqiy yoki ijtimoiy idealida) emas, balki barcha jamoa a'zolarining faol harakatlari va fazilatli ishlari natijasi mahsulidir. Rahbar shaxs fazilatiga Abu Nasr Forobiy katta e'tibor qaratadi. Masalan, "Fozil odamlar shahri" asarida fozil shahar hokimining o'n ikki fazilatlarini haqida fikr bildirgan. Buni asar boblarining "25. Shahar boshlig'ining shaxsi haqida so'z", "26. Fozil shahar raisining xislatlari haqida so'z" kabi nomlanishida ham ko'rish mumkin.

Forobiy qarashlariga binoan adolatli jamiyat va fozil davlatda rahbar bo'ladigan nomzodlar komil insonga xos bo'lgan axloqiy qadriyatlar va sifatlarga ega bo'lishi lozim. Komil insonlar orzusi bo'lgan fozil jamiyat yoki ideal davlat aql talablari, adolat va muhabbat asoslari ustiga quriladi. Fozil jamiyatni komil insonlar boshqarishlari lozim. Xususan, jamiyat a'zolari o'rtasida o'zaro muhabbat, axloqiy kategoriya sifatida, yaxlit sotsial organizmdan tarkib topgan fozil jamoaning sobitligi va uning qismlari (tabaqalari) o'rtasidagi bog'lanishni ta'minlovchi muhim halqa hisoblanadi.

Shuningdek, go'zallikka erishish uchun uning mohiyati haqida nazariy bilimga ega bo'lish hamda unga erishishning hayotiy vositalari va yo'llarini bilish va o'zlashtirish talab etiladi. Kishilarni bu yo'lda ilm bilan qurollantirish maqsadlarida falsafa ilmi nazariy va amaliy qismlarga bo'lingan. Bizningcha, o'sha paytda rahbarlarga qo'yilgan talablar bugungi kunda ham o'zining dolzarbligini yo'qotmaganiga iqror bo'lamiz. Zero, bunday fazilatlariga ega bo'lish bugungi kunda boshqaruvchilik mehnatining unumdor va samarali bo'lishiga xizmat qiladi. Biroq Forobiy mana shu barcha xislatlarning bir odamda jamlanishini amri mahol, deb hisoblaydi. Agar bunday odam topilmasa, ikki kishi birgalashib, shu xislatlariga ega bo'lishsa (ya'ni biri – donishmand, ikkinchisi — qolgan xislatlar sohibi bo'lsa), shu ikkovini fozillar shahriga rahbarlikka qo'yish zarur, deb hisoblagan.

Forobiy adolatli jamiyatda yashash uchun bilim va yetuk axloqqa ega bo'lish zaruriyati to'g'risida fikr yuritir ekan bu kabi fazilat va sifatlarni avvalambor rahbarlarda mavjud bo'lishi

lozimligini ko'rsatdi. Uning fikricha, boshqaruv tizimida faoliyat yurituvchi rahbarlar tomonidan amalga oshiriladigan siyosat jamiyat axloqi va farovonligini belgilab beradi, lekin bu axloq va farovonlikning darajasi yuritilayotgan siyosatning qanchalik bilimli, axloqli barkamol ekanligiga qarab belgilanadi. Insonni komillik fazilatiga erishish faoliyatida bilim va yetuk axloq uzviy ravishda bir-biri bilan bog'langandir, bilim narsalarning mohiyatini, ichki sababiyatlarini bilish imkonini beradi, axloqiy (ma'naviyat) esa odamni ezgu fazilatlarga da'vat etadi. Chunki kamolotga erishish odamdan o'zining so'nggi maqsadi — baxt va farovonlikka etish, baxtni qo'lga kiritish foydali narsalarni bilishni talab qiladi. Bu foydali narsalar – turli ne'matlar, fazilatlar va yaxshi ishlardan iboratdir. Kamolga erishish jarayonida odam yaxshi va yomon narsalarni bir-biridan ajratishni kamolotga erishish yo'lidagi turli to'siqlar va illatlarni bartaraf etish vositalariga ega bo'ladi. Ya'ni, ma'naviy yuksalish, axloqqa ega bo'lish, bu — hayotiy donishmandlik yo'lidir. Bu yo'lda narsalarning mohiyatini, fazilatlarini bilish va ularga erishishning amaliy vositalarini to'g'ri anglash talab qilinadi.

Komillik insondan fazilatli ishlar mohiyatining nazariy jihatlarini bilishni va bu nazariy jihatlardan o'z xatti-harakatlarida foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishni talab qiladi. Komil insonning fazilatli ishlari ilmga asoslangan holda bajariladi. Lekin inson o'z ilmi va hunarini (san'atini) amaliy jihatdan tatbiq eta olish vositalarini egallashga erisha olmagan bo'lsa, unda bu egallangan bilimlar insonga komillik bag'ishlay olmaydi

Rahbar" va "millat" tushunchalari dialektik aloqadorlikda jamiyat bilan davlat bog'liqligini ifodalovchi, inson ekzistensial borlig'ining mohiyatini belgilab keluvchi yuksak, oliy janob tuyg'ulardir. Ammo ularning yuksak, olijanobligi dinamik rivojlanish va o'zgarishga moyil insonni, jamiyatni maxsus chora-tadbirlar, ma'naviy-axloqiy ta'sir komplekslari, tarbiya o'choqlari, institutlar zarurligini rad qilmaydi. Bugungi jamiyatlar, inson hayoti globallashuv ta'sirida shunday bir xaos tarzda o'zgarib bormoqdaki, ularga qarshi yanada kuchli tartiblashtirilgan, ratsional va samarali vositalar bilan qo'llab-quvvatlanadigan, individlar bilan ijtimoiy borliq o'rtasidagi garmoniyani ta'minlaydigan imperativlar zarur.

Rahbarlik bilan milliy g'urur o'rtasida ma'lum bir farqlar mavjud, biroq biz uchun ushbu etimologik farqlar emas, balki ularning uyg'un tarzda zamonaviy rahbar shaxslarni shakllantirishdagi o'rni muhimdir. Vatan mustaqilligiga, chegaralari yaxlitligiga va xalq, millat osoyishtaligiga xizmat qilish ularni uyg'unlashtiruvchi omil hisoblanadi.

Rahbar axloqida milliy g'urur chuqur e'tiqod mahsuli bo'lganidagina shaxsga ma'naviy qoniqish keltiradi va unda axloqiy yuksaklikni sezib, o'z ideali bilan faxrlanish tuyg'usini uyg'otadi. Chuqur e'tiqod qat'iy ishonch, vatan, xalq, millat manfaatlari borligini aniq bilish va ularni himoya qilishga mudom tayyor turish, agar zarur bo'lsa, o'zining tor shaxsiy ehtiyojlaridan kechib, bor kuchini yurt ravnaqiga sarflashni anglatadi. Chuqur e'tiqodda ilohiylik elementi bor. Bu o'rinda biz diniy e'tiqodni emas, balki dunyoviy, anglangan va fidoiylikka qurilgan insoniy e'tiqodni nazarda tutamiz.

Rahbar axloqida milliy g'urur in'ikosi, ular o'rtasidagi dialektik bog'liqlik, uyg'unlik, bizning fikrimizcha, quyidagilarda aks etadi:

Birinchi, milliy g'urur umumiy-ijtimoiy, milliy makonda namoyon bo'ladigan hodisalar sirasiga kiradi. Bu makonni shaxs tug'ilganidayoq tayyor topadi. Biroq bu uning mazkur makonga ijodiy, kreativ munosabatda bo'lishini rad etmaydi. Milliy g'urur maxsus ideologik va ma'rifiy omillar ta'sirida shakllantiriladigan g'oyaviy qadriyat hisoblansa-da, u bo'sh joyda paydo bo'lmaydi. Agar vatan, el, yurt bu g'urur uchun ijtimoiy makon hisoblansa,

demak, milliy g'urur uchun shunday makon zarur. Bu makonni vatan bilan aynanlashtirish ham mumkin. Vatan el, yurt, millat yashaydigan ijtimoiy makon tarzida, milliy g'urur shakllanishining eng muhim sharti, kafolati hisoblanadi. Milliy g'urur faqat "Vatan" deb ataladigan, xalq, millat yashaydigan, shaxs mavjudligini va borligini belgilab keladigan ijtimoiy makonda paydo bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, milliy g'urur etnoma'naviy omillar ta'siri mahsulidir. Xalq, millat tomonidan yaratilgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ayniqsa vatanparvarlik, ajdodlar qoldirgan ma'naviy meros va boyliklar bilan faxrlanish, o'zini millati vakili ekanidan mag'rurlanish, uni yot qarashlar xurujidan himoya qilishga tayyorlik, shaylik kabilar izchil ma'naviy tarbiya ta'sirida shakllanadi. Etnoma'naviy qadriyatlar shaxsga o'zligini anglash imkonini beradi. O'z xalqi, millatini anglash ketidan o'zlikni anglash keladi. Xalqi, millatini anglamay o'zlikni anglash mumkin emas, chunki shaxs uchun, avvalo, o'zining tub negizini, ontologik mohiyatini belgilab keluvchi asosni bilishi zarur. O'zlikni anglash individual voqelik bo'lib qololmaydi, u o'zidan keng voqelikka, ya'ni xalq, millat pog'onasiga ko'tarilishi, ana shu subyektlar orqali o'zini idrok etishi kerak. Shuning uchun etnoma'naviy omillar ichida etnik identifikatsiya masalasi yetakchi o'rinda turadi.

Uchinchidan, milliy g'urur xalqni, kishilarni umummilliy manfaatlar, g'oyalar va maqsadlar atrofida birlashtiruvchi kuchga ega. Milliy g'urur rahbarni yuksaklikka, oliyjanob, fidoiylikka undaydi, rahbar ular orqali o'zini ijtimoiy kuch, birlikka daxldor subyekt ekanini idrok etadi. Bu hodisani K.Yung shaxsning "jamoaga transformatsiyasi", deb atagan edi [2]. Millat yaratgan artefaktlar, madaniy boyliklar, tili, yozuvi va tarixi, o'tmishi rahbarda faxr hissini uyg'otishi kerak. Milliy manfaatlariga yo'naltirilgan faoliyat, faollik milliy g'ururning obyektivlashganidan darak beradi. Millat va uning taraqqiyoti uchun g'urur tuyg'usining o'zi emas, balki uning real munosabatlarga aylangani, ijtimoiy borliqni takomillashtirishga qaratilgan amallarda obyektivlashgani muhimdir.

Rahbarlik va milliy g'urur kategorial negizlari bo'lgan "faoliyat", "faollik", "amallar", "altruizm", "qahramonlik" va "jasorat" kabi voqeliklar orqali tadqiq etiladi. Faoliyat, faollikning rahbar axloqi bilan uyg'un kelishida, qaralishida o'ziga xos ijtimoiy-falsafiy ma'no bor. Ya'ni, u quyidagi jihatlar bilan izohlanadi. Birinchidan, faoliyat, faollik ongli mavjudotning mavjudlik, hayotiylik sharti va ifodasidir. Faqat ongli mavjudotda, ya'ni insonda faoliyat, faollik anglangan hodisa tarzida namoyon bo'ladi. Faollik barcha mavjudotlarga xos, hatto asalarining uya qurishiga har qanday arxitektor havas qilishi mumkin. Asalarining faolligi shunchalik ratsional va tartibli, undan inson ko'p narsalarni o'rganishi mumkin. Biroq asalarining faolligi anglangan faoliyat emas, faqat inson o'z xatti-harakatlariga anglanganlik, maqsadlilik baxsh etadi. Aytmoqchi bo'lgan fikrimiz shundaki, faoliyat, faollik rahbar axloqida, milliy g'urur bilan uyg'unlashganida ularning barchasi inson xatti-harakatlarini anglanganlik, maqsadlilik sintezidan o'tkazib qarashga yetaklaydi. "Faoliyatga, faollikka aylangan tuyg'ular ijtimoiy-falsafiy mohiyatga ega. Faoliyat, faollik ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning asosiy kategoriyalari hisoblanadi. Insonni faoliyat, faollik orqali tadqiq etish, uning xatti-harakatlarini maqsadlilik, anglanganlik nuqtai nazaridan kuzatishi orqali ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar falsafaga yaqin turadi" [3].

Professor A.N.Leontev esa inson ongining rivojlanishi, o'ziga xos psixologik voqelik sifatida shakllanishi aynan faoliyat, faollik bilan bog'liqligini, inson yaratgan madaniy boyliklar ana shu jarayonlar ifodasi, mahsuli ekanini asoslagan [4]. Keyinchalik E.Fromm insonning

ijtimoiy borliqdagi o'rnini, "mavjudlik yoki nomavjudlik" muammosini "ijtimoiy va madaniy faoliyat" bilan bog'laydi [5]. Faoliyat, faollikni insonning barcha xatti-harakatlariga tatbiq etish mumkin. Bunda, faoliyat, faollik rahbar axloqida shunchaki tuyg'u bo'lib qololmaydi, u alohida fenomen darajasida namoyon bo'ladigan voqelikdir. Bu voqelikka fidoiylilik, altruizm, jasorat, mardlik kabi fazilatlar ham kiradi. Vatan inson tug'ilib o'sgan, etnomadaniy merosini o'zlashtirgan, tili va tafakkurini shakllantirgan, ajdodlar xoki va tajribasini e'zozlashga o'rgatgan ijtimoiy makondir. Bu makondagi moddiy va ma'naviy boyliklarni asrash, ko'paytirish, kelgusi avlodlarga etkazish har bir shaxsning, xususan har bir rahbarning muqaddas burchi hisoblanadi. Fidoiylilik inson hayoti uchun fundamental ahamiyatga ega "bazaviy qadriyatlar" bilan bog'liq. Bunday bazaviy qadriyatlarga hayotni asrash, ko'payish, o'z yaqinlarini xavf-xatardan himoya qilish, ojiz va yordamga muhtoj yaqinlariga yordam ko'rsatish, boqish, tashqi dushmanlar hujumlarini bartaraf etish, tabiiy ofatlardan qutqarish, uy-joy bilan ta'minlash kabilarni kiritib o'tishimiz mumkin. Ushbu "bazaviy qadriyatlar" insonni butun ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot bosqichlarida fidoiy bo'lishga, faollikka undab kelganini kuzatamiz. Masalan, hayotni asrash insonga tabiat tomonidan berilgan instinktadir.

Ijtimoiy-axloqiy normalar, ma'naviy qadriyatlar taraqqiyot ehtiyojlari tarzida insoniyatga umumiylik, umumbashariylik baxsh etib keladi. Mana fidoiylilik mohiyatan nimalar bilan bog'liq. Yoki bo'lmasa, bazaviy qadriyat bo'lgan yaqinlarni zarur narsalar (uy-joy, kiyim-kechak, oziq-ovqat) bilan ta'minlashni olaylik. Insonning to'laqonli yashashi, ongli mavjudot sifatida faoliyat yuritishi uchun ushbu bazaviy qadriyatlar o'ta muhim. Xalqlar, millatlar turmush tarzini belgilab kelgan, etnomadaniy boyliklarni o'lmas qadriyatlarga, artefaktlarga aylantirgan ushbu bazaviy qadriyatlar, falsafa fanlari doktori, professor Iso Jabborov iborasi bilan aytganda "xo'jalik madaniy tiplari" insonni, xalq, etnos vakili sifatida, fidoiy bo'lishga undab keladi. Fidoiy bo'lmasdan ushbu bazaviy qadriyatlarni asrab ham, millat, etnos vakili sifatida yashab ham bo'lmaydi. Demak, faollik, fidoiylilik bu zamonaviy rahbar axloqining asosiy imperatividir.

Rahbarga nisbatan fidoiylilikni tahlil qilar ekanmiz bu o'rinda altruizm va egoizm masalasiga ham oydinlik kiritishni lozim topdik.

Altruizm egoizmga qarshi axloqiy prinsip bo'lib, u boshqa kishilarga beg'araz xizmat qilishdan, ularning baxt-saodati uchun o'z manfaatlarini qurbon qilishdan iborat. Altruizm ko'ra, "Vivre pour autrui" – boshqalar uchun yasha, iborasi axloqiy talabning epigrafidir.

Rahbar axloqini altruizm va egoizm kategoriyalari nuqtai nazaridan tahlil qilib chiqish uning substansiyasini yanada oydinlashtiradi. Ushbu ikki kategoriya ezgulik va yovuzlik kabi insonni ma'naviy olamida doimiy raqobatda bo'lgan. Sharq ijtimoiy falsafiy ta'limotlarida inson manfaatlar nuqtai nazardan sotsiumga nisbatan altruizmni konstruktiv roli yetakchi rol o'ynagan. G'arbda ijtimoiy –falsafiy tafakkurida esa aksincha, inson o'z manfaati jamiyat manfaatidan ustun qo'yiluvchi individualizmni, egoizmni g'oyaviy ta'minlagan, ularda inson raqobatni, kim o'zarlikni targ'ib qiluvchi nazariyalarni ko'p uchratish mumkin.

Burch, sodda qilib aytganda, majburiyatdir. Jamoat manfaati burchning manbai va asosidir. Rahbar burchi deb uning jamiyat, davlat qo'ygan vazifalarni, xizmat vazifalarini majburiy ravishda bajarishlariga aytiladi. Rahbarning axloqiy fazilati "burch" va "mas'uliyat" tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Burch rahbar uchun so'zsiz bo'ysunishni, o'zini axloqiy jihatdan takomillashtirishni, vazifani ongli ravishda bajarishni talab etadi. Rahbar burchi Vatan oldidagi mas'uliyatni to'liq bajarish, Vatanni e'zozlash bilan belgilanadi. Bu mas'uliyat, ayni

paytda, Vatanni dushmanlardan himoya qilishni, tahdidlarga qarshi kurashishni, Vatanni ravnaq toptirish, unga sadoqat bilan xizmat qilishdek ezgu fazilatlarini qamrab oladi. Burchni anglab etish esa, faqat bilim, tajriba, ko'nikma, malaka orqali ro'y beradi. Nemis faylasufi Immanuel Kant bunday burchni huquqiy va axloqiy burchga ajratadi.

Hozirgi vaqtda fuqarolik jamiyati qurish yo'lida mustaqil mamlakatimizning buyuk kelajagi bevosita Sharq va G'arb dunyoqarashidagi ijtimoiy-falsafiy fikr, dunyoviy madaniyat taraqqiyotidagi o'rni va uning bugungi kunda rahbarning axloqiy-estetik ko'rinishi hamda jamiyat taraqqiyoti hamohangligi bilan uyg'un tarzda o'rganish har qachongidan dolzarbligini quyidagi vazifalar asosida ko'rishimiz mumkin:

rahbar kadrlarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda axloqiy-estetik omillarni rivojlantirish zaruratini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish;

rahbar kadrlar dunyoqarashiga fikrlar xilma-xilligi, milliy qadriyatlarni singdirish, ularni rahbar kadrlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatida axloqiy me'yorlar sifatida qaror topishiga erishish boshqaruv rahbarlarida demokratik tafakkurning o'sishi hamda ular dunyoqarashidagi demokratik o'zgarishlarning rahbar kadrlar kasbiy madaniyatini shakllanishiga ta'sirini o'rganish;

rahbar kadrlar kasbiy madaniyatini shakllantirishning muhim jihati bo'lgan axloqiy-estetik omillarni o'rnini oshirish mamlakatda davlat boshqaruvini milliy manfaatlar asosida amalga oshirishni ta'minlashini asoslash e'zozlash rahbar kadrlar faoliyatining asosiy tamoyili ekanligi falsafiy fanlar nuqtai nazaridan tadqiq etish:

rahbar kadrlarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda uning axloqiy-estetik qadriyatlarni o'zlashtirish darajasini aniqlashning mezonlari tarixiy tajriba va zamonaviy amaliyot natijalarini umumlashtirish asosida bir tizimga keltirish;

rahbar kadrlar kasbiy faoliyatini axloqiy-estetik qadriyatlar bilan bog'lash, bu jarayonda rahbar kadrlarning faoliyatining asosiy yo'nalishi sifatida milliy manfaatlar talablarini qo'yilishi, ularning Vatan ozodligi va obodligi yo'lidagi faoliyatlarining umumiy va mushtarak holda kechishini ta'minlashda ma'naviy omillarning o'rnini nechog'lik muhim ahamiyat kasb etishi ochib berish;

rahbar kadrlar kasbiy madaniyatini shakllantirishda axloqiy-estetik omillardan keng foydalanish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi obyektiv va subyektiv omillarni aniqlanib, ulardan foydalanishga doir uslubiy va amaliy tavsiyalar hamda takliflar ishlab chiqish;

rahbar kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash tizimida axloqiy-estetik qadriyatlarni o'zlashtirishni kengaytirish vositasida rahbar kadrlarni faoliyatini samarasini oshirish, ularning ish faoliyatlarini aholi manfaatlarini ifodalashlari asosida kechishini ta'minlashga doir nazariy tahlillar shakllantirish:

rahbar kadrlar kasbiy madaniyatini shakllantirishda g'oyaviy-mafkuraviy omillar o'rnining muhim ahamiyat kasb etishi asoslash:

milliy istiqlol g'oyasining jamiyatda fuqarolarni jipslashtirish, ularning mehnat va ijtimoiy faolligini oshirishga qodir birlashtiruvchi kuch sifatidagi o'rni ochib berish:

Xulosa qilib aytganda, rahbar kadrlar axloqiy-estetik madaniyati masalasi nuqtai nazaridan o'rganish jarayonida ushbu mavzuga oid qarashlarida bir-biri bilan uzviy bog'liq qator jihatlar mavjudligi yaqqol ko'zga tashlanadi:

birinchidan, umuminsoniylik tamoyilining ustuvorligi, ya'ni shu sohada jahon xalqlari to'plagan tajribaga tayanish, uni ijodiy o'rganish va mamlakatimizga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda amaliyotga tatbiq etish;

ikkinchidan, milliylik tamoyiliga tayanish, ya'ni zamonaviy rahbar kadrlar tayyorlashda xalqimizning merosi, an'ana va tajribalari bu sohadagi ta'lim-tarbiya manbai sifatida talqin qilinadi;

uchinchidan, tarixiylik tamoyiliga asoslanib, rahbar kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yangilash, uni takomillashtirish va zamon talablari asosida muttasil modernizatsiya qilish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish;

to'rtinchidan, zamonaviylik tamoyili asosida hozirgi davrda bu sohada qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, ilg'or tajriba va texnologiyalarni rahbar kadrlar tayyorlash bilan bog'liq amaliyotga joriy etish.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Кант И. Сочинения. В 8-ми томах т. Т.5.М. : Чоро, 1994. С.279
2. Юнг К.Г. Душа и миф: иметь архетипов. –Москва: Порт Рояль совршенство, 1997. - С.257-259.
3. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. СПб.: Питер, 2001. –С.325.; Бодалев А.А. Восприятие человека человеком. СПб.: Питер, 2003. –С. 153.; Абулханова Славская К.С. Деятельность и общение. СПб.: Питер, 2006. -С. 42.
4. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. –Москва: Изд. Моск. ун та, 1991. -С.418.
5. Фромм Э. Искусство быть. Новая философия. –Москва: АСТ, 2014. –С.192-194.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).